



"ТАСДИКЛАЙМАН"  
"АНДИЖОН ПАХТА УРУҒЧИЛИГИ" МЧЖ

М.Абдурахмонов

Андижон вилояти Андижон тумани Чўмбоғич мфй да жойлашган  
"АНДИЖОН ПАХТА УРУҒЧИЛИГИ" МЧЖ корхонаси ҳудуди "Кичик пахта тозалаш цехи ҳамда  
уруғлик бутдой ва 24 хил дуккаклик ўсимликларни тозалаш, дорилаш цех"ларининг бино  
иншоотларини қурилишининг лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш учун  
**ТАНЛОВ ҲУЖЖАТЛАРИ**

Андижон тумани-2022 йил

Танлов ҳужжатларини мазмуни:

1. Танлов иштирокчилари учун йўриқнома
2. Техник қисми
3. Нархлар қисми

**ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ УЧУН ЙЎРИҚНОМА**

**1. ТАНЛОВ ПРЕДМЕТИ ВА ТАХМИНИЙ ҚИЙМАТИ**

- 1.1. Танлов предмети: Андижон вилояти Андижон тумани Чўмбоғич мфй да жойлашган "АНДИЖОН ПАХТА УРУҒЧИЛИГИ" МЧЖ корхонаси ҳудуди "Кичик пахта тозалаш цехи ҳамда уруғлик бутдой ва 24 хил дуккаклик ўсимликларни тозалаш, дорилаш цех"ларининг бино иншоотларини қурилишининг лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш.
- 1.2. Танловнинг юқори қиймати 155 000 000 сўм (бир юз элик беш миллион) сўм. Ушбу қийматдан ортиқ қийматлар қабул қилинмайди.
- 1.3. Махсулот буйича техник топшириқ танлов ҳужжатларининг техник қисмида илова қилинган.
- 1.4. Ишларни бажариш муддати: ғолиб бўлган қатнашчи билан шартнома имзоланган кундан бошлаб тузилган нуқсон далолатномасига асосан белгиланган график буйича.
- 1.5. Ишларни бошлаш муддати-аванс маблағи ўтказилган кундан бошлаб ҳисобланади.

**2. ТАНЛОВ ТАШКИЛОТЧИЛАРИ**

- 2.1. "Андижон пахта уруғчилиги" МЧЖ корхонаси (бундан кейин "Буюртмачи" деб аталади) танлов ташкилотчиси ҳисобланади. Буюртмачининг манзили: Андижон вилояти Андижон тумани Чўмбоғич МФЙ.
- 2.2. Танлов "Буюртмачи" томонидан танловлар ўтказиш буйича тузилган Харид комиссияси томонидан ўтказилади.
- 2.3. Танлов: "Андижон пахта уруғчилиги" МЧЖ корхонаси (Буюртмачи), тузган харид комиссияси томонидан қонунда белгиланган тартибда, белгиланган муддатларда ўтказилади.

**3. ТАНЛОВ ИШТИРОКЧИЛАРИ**

- 3.1. Танлов, мулкчилик шаклидан қатъий назар шу мазмунда иш ва хизматлар кўрсатишга ихтисослашган, камида 3 йил тажрибага эга бўлган барча юридик мақомга эга бўлган ташкилотлар иштирок этиши мумкин.
- 3.2. Танловда иштирок этиш учун талабгорларга қуйидаги малакавий талаблар қўйилади: танлов предмети ишлар(хизматлар)ни бажариш учун зарур бўлган меҳнат ресурслари ва мутахассисларининг мавжудлиги; объектнинг мураккаблик даражасига қараб, "лицензия" ва "гувоҳнома" 22.04.2022 йил кунги ЎРҚ-684 сонли қонунининг 13 моддасига риоя этилиши шарт.
  - Моддий техника базаси ҳамда ташкилотнинг оргтехника рўйхати ускуналар
  - Бахтсиз ходисалар бўлган вазиятларда ишчи ходимларнинг ҳаёти суғурталанганлиги
  - Техника ҳафсизлиги қоидаларига риоя қилиш талаблари ҳамда йўриқномалари
  - Ишчи ходимларнинг дипломи нусхалари, меҳнат давтарчалари ёки mehnat.uz сайти орқали рўйхатдан ўтганлиги тўғрисидаги ҳужжат
  - Бажарилган ишларга бериладиган қафолат муддати
  - Шу соҳада олдин қилинган ишлари буйича буюртмачилар берган тавсифномалари
- 3.3. Агар танлов предмети бўлган ишлар (хизматлар) бажариш билан боғлиқ фаолият қонунчиликка биноан лицензиялаштириши зарур бўлса, танловда иштирок этиш учун белгиланган тартибга мувофиқ тегишли лицензияга эга бўлган талабгорларга рухсат этилади.
- 3.4. Қуйидаги талабгорларга танлов жараёнларида иштирок этишга рухсат берилмайди: қайта ташкил этилиш (ажралиши, қўшилиш), тугатиш ёки банкротлик арафасида турганлар; молмулки мусодара қилинганлар, ҳамда муассислик келишув, молиявий иштирок, холдинг ва бошқа шаклда ифодаланган бевосита ташкилий-ҳуқуқий ёки бир бирига молиявий қарамлиги мавжудлар.

#### 4. ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ УЧУН ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ

- 4.1. Танлов учун таклифлар ва унга тегишли иловалар ва ҳужжатлар, маълумотлар "Буюртмачи" ва "Иштирокчи" ихтиёрига кўра ўзбек тилида тақдим этилиши мумкин.
- 4.2. Танлов ҳужжатларида куйидагилар тақдим этилиши лозим:  
Техник қисми, "Буюртмачи" томонидан кўйилган техник талабларни ва бажариладиган иш ва хизматлар кўрсатилиши керак;  
Нархлар қисми, Танлов шартларида белгиланган нархлар доирасида, хизматларни бажариш муддатлари, тўловлар тартиби ва яқиний тўловлар ва бошқа боғлиқ кўрсаткичлар кўрсатилган бўлиши керак.  
Танлов иштирокчилари ҳар бир таклифларни яхлит ҳолда тикилган, номерланган ваколатли шаже имзоси ва муҳри билан тасдиқланган ҳолда ёки ҳар бир вароғини муҳрлаб тасдиқлаган ҳолда тақдим этишлари лозим.
- 4.3. Куйидаги ҳужжатлар тўлиқ бўлиши талаб этилади:  
Техник ва нархлар бўйича куйидаги таклифлар:  
Техник ҳужжатлар рўйхати (брошюралар, техник паспортлар ёки ўхшаш ҳужжатлар рўйхати илова қилинади);
- 4.4. Танлов иштирокчиси:  
Иштирокчилар таклифни фақат бир мартаба бериши мумкин; тақдим этилаётган ҳужжатларнинг ҳақиқийлиги ва маълумотларнинг ҳаққонийлигига тўлиқ жавобгар бўлади; таклифлар бериш муддати тугагунга қадар ўз таклифларини қайтариб олиш ёки ўзгартириш киритиш ҳуқуқига эга.

#### 5. ТАКЛИФЛАРНИ ТАҚДИМ ЭТИШ МУДДАТИНИ УЗАЙТИРИШ


- 5.1. Харид комиссияси танлов учун таклифларни қабул қилиш муддатини барча иштирокчилар учун таълуқли ҳолда эълон қилинган муддатдан яна 5 календарь кунига узайтирилиши мумкин.
- 5.2. Таклифлар муддатини узайтирилиши фақат харид комиссияси йиғилиши қарори асосида амалга оширилади.
- 5.3. Танлов муддатини узайтириш тўғрисидаги қарор махсус ахборот порталида жойлаштирилиши лозим.

#### 6. ТОМОНЛАРНИНГ ЖАВОБГАРЛИГИ

- 6.1. Давлат харидлари тўғрисидаги Қонун талабларини бузган шахслар қонуничиликда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар.
- 6.2. Харид комиссияси давлат харидлари бўйича қонуничиликда белгиланган тартибда ғолиб иштирокчиларни аниқлаш ва асосланган қарор қабул қилиш бўйича мажбурдир.
- 6.3. Танлов иштирокчиси тақдим этилган барча ҳужжатларни ҳақиқийлиги ва тўғрилигига жавобгардир. Ғолиб иштирокчи деб топилгандан сўнг қонуничиликда белгиланган тартибда давлат буюртмачиси билан ўрнатилган тартибда ва муддатларда шартнома тузишга мажбурдир.

#### 7. БОШҚА ШАРТЛАР

- 7.1. Давлат буюртмачиси танлов ҳужжатларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида танловдаги хабарни танловда иштирок этиш учун киритилган таклифларни муддати тугайдиган санадан камида уч кун олдин қарор қабул қилишга ҳақли. Иштирокчилар ўзларининг (ишини, хизматларини) узгартиришига йўл қўйилмайди. Бунда ушбу танловда таклифлар бериш тугайдиган муддати танлов ҳужжатларига узгартиришлар киритилган санадан эътиборан камида беш иш кунига узайтирилиши керак. Шу билан бир вақтда, агар эълонда кўрсатилган ахборот ўзгартирилган бўлса, танлов ўтказиш тўғрисидаги эълонга ўзгартириш киритилади.



Ўзбекистон Республикаси  
Қурилиш вазирлиги

№ 5791-5662-b2b0-8e7e-2795-3074-0581  
Хужжат яратилган сана: 2022-06-22  
Ариза рақами: 53591707

Хужжат берилган: "ANDIJON PAXTA URUG'CHILIGI"  
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT  
ЖШ ШИР: 302425330

**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ  
ТОПШИРИҒИ**

22.06.2022 11:02 й.  
1703-1703203-44965 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	"Ma'muriy va ishlab chiqarish binolari xududiga qo'shimcha ishlab chiqarish binosi, hodimlar uchun sanitar hona qurish va mavjud binolarni rekonstruksiya" qilish.
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Andijon tumani, Cho'mbog'ich MFY, Cho'mbog'ich ko'chasi xududida.
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	"ANDIJON PAXTA URUG'CHILIGI" M.CHJ.

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Andijon shahar A.Novoiy shox ko'chasi 30 manzil xududi 74-223-57-12

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни
1	Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар	Andijon tumani qurilish bo'limining 2022 yil 04 iyun kungi 1703401-55495-sonli ruxsatnomasi. "O'zsuvta'minot" Andijon suvta'minoti MCHJ Andijon tumani filialining 2022 yil 6 iyun kungi 02/01-55-sonli texnik xulosasi. Hududgaz GTF Andijon tumangaz bo'limining 2022 yil 4 iyun kungi 03-01-12-37/357-sonli xulosasi Andijon hududiy ETK AJ ning 2022 yil 7 iyun kungi 30-31-95/511-sonli texnik sharti "Geo Sektor" MCHJ ning M 1:500 masshtabli toposyomkasi

2	<p>Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашishi ва бош режада тугган ўрни</p>	<p>Qurilish ob'yekti Andijon tumani, Cho'mbog'ich MFY, Cho'mbog'ich ko'chasi xududidagi 36700.0 kv.metr maydonida joylasgan "ANDIJON PAXTA URUG'CHILIGI" M.CH.J ga tegishli "Ma'muriy va ishlab chiqarish binolari xududiga qo'shimcha ishlab chiqarish binosi, hodimlar uchun sanitar hona qurish va mavjud binolarni rekonstruksiya" qilish. Andijon tumani, Cho'mbog'ich MFY, Cho'mbog'ich ko'chasi xududida Andijon tumani, Cho'mbog'ich MFY, Cho'mbog'ich ko'chasi xududida rejalashtirilgan. Andijon tumani Nayman qishlog'ining XMRTL (APOT) ga asosan Andijon paxta urug'chiligi ob'yekt joylashtirilgan.</p>
3	<p>Лойиҳалаштириладиган объект худудининг табиий-иклим кўрсаткичлари</p>	<p>Qurilish maydoni relyefi tekis yerdan iborat. Kurilish iklmiiy mintakasi - II Seysmik zonasi - 9 balldan yukori Iklimi - keskin kontinental Havoning xisobiy darajasi - 15 C Shamolning hukumron yunalishi - g'arbiy</p>
4	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги</p>	<p>Loyixalashriliadigan ob'yekt yer uchastkasi xolatni o'rganish uchun "O'ZGASHKLITV" davlat unitar korxonasi yoki ushbu faoliyat bilan shug'ullanishga lisenziyasi bor tashkilotning filialiga 1:500 nisbatdagi topoxarita ishlab chiqish uchun buyurtma berilsin, tuproq tarkibining geologik xulosasiga asosan loyixalash ishlari amalga oshirilsin.</p>
5	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот</p>	<p>Shimol tomonidan axoli uylari va ko'cha bilan, Sharq tomonidan yog'ochni qayta ishlash sexi binolari bilan, Janub va G'arb tomonlaridan ariq bilan chegaralangan</p>
6	<p>«Қизил чизиқлар ва белгилар»</p>	<p>Yo'lning qizil chizig'i va belgisi 1:500 masshtabli chizmada ko'rsatilgan. Qurilish maydonining burchaglarida qizil (loyihaviy) belgi aks etgan.</p>

7	<b>Архитектура талаблари</b>	<p>Loyixani ishlab chiqishda: a) xarakatdagi (SHNQ 2.07.01-03*) shaxarsozlik me'yor va qoidalariga amal qilinsin; b) axoli punktining tasdiqlangan bosh rejasiga va uninga tegishli qismining batafsil rejalashtirish loyixasiga qa'tiy rioya etib, ob'yekt atrofidagi mavjud binolarga mujassamligi ta'minlansin, yagona arxitektura kurilish (ansambli) tashkil etilishi lozimligiga aloxida e'tibor qaratsin; v) ushbu arxitektura -rejalashtirish t'pshirig'iga muvofiq buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan xamda aloxida muxim ob'yektlar bo'yicha viloyat Qurilish bosh boshqarmasi tomonidan kelishilgan loyixa topshiriqlariga hamda 1:500 nisbatdagi topoxaritadagi tasdiqlangan chegaralarga amal qilinsin; g) ob'yektning 1:500 nisbatdagi bosh rejasini loyixalashtirishda loyixa tashkiloti tomonidan qayta ixtisoslashtirilayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino tushirilgan xamda ob'yekt atrofida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan, ob'yektga kirish-chiqish yo'llari va avtomobillartuxtash joylari tashkil etilishi nazarda tutilsin; d) ob'yektning balandligi tuman xamda viloyat bosh arxitektorlari tavsiyasiga asosan belgilansin; ye) ob'yektda kichik arxitektura shakllari o'rnatilishi nazarda tutilsin va xududda zamonaviy ko'rinishdagi tungi yoritish chiroqlarini o'rnatish ko'zda tutilsin. Joyning holati loyihachi tomonidan joyiga borib atroflicha o'rganilishi shart. Qurilishi rejalashtirilgan binoni loyixachi tomonidan yon tomnidagi obektlarga nisbatan yong'in xavfsizligi norma va qoidalari asosida xamda qo'shni binolarga nisbatan yorug'lik tushishi (insalyasiya) ni inobatga olgan xolda loyixa ishlarini amalga oshirish shart. Binoni qayt'iy loyiha asosida qurilishi nazoratga olinsin. Mualliflik nazorati o'rnatilsin. Xokim qarori, komissiya bayonnomasi yoki arxitektura bo'limi tomonidan berilgan ruxsatnoma va texnik shartlardagi talablar bajarilsin.</p>
8	<b>Лойихалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар</b>	<p>Loyixa tashkilotining loyixa topshirig'iga muvofiq: a) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida buzilishga tushgan bino va inshotlarga aniqlik kiritilsin. b) Xududda buzilishi ko'zda tutilgan ob'yektlar mavjud bo'lgan taqdirda buzish ishlari amaldagi qonun talablari asosida bajarilsin. v) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino va inshotlardan foydalanish buyicha takliflar ishlab chiqilsin.</p>
9	<b>Объектни босқичма-босқич қуриш</b>	<p>Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyixa topshirig'iga muvofiq qurilishni bosqichma-bosqich olib boriladi. Shu bilan birga davlat ob'yektlari moliyalashtirish bosqichlariga asosan amalga oshiriladi va jixozlash ishlari bajariladi.</p>
10	<b>Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш</b>	<p>SHNK 2.07.01-03 talablaridan chiqmagan holda xovli va qizil chiziqgacha bo'lgan maydon uchun obodonchilik loyixasi ishlansin. Amaldagi me'yorlar asosida manzarali daraxtlar, gulxonalar hamda kichik arxitektura formalari nazarda tutilsin. Maydon yo'laklarni asfalt hamda betonli g'ishtlar (bruschatka) bilan koplash e'tiborga olinsin. Tungi yoritish tuzimi, kichik arxitektura shakllari ko'llansin.</p>

11	Санитария-гигиена талаблари	<p>(Ob'yektin loyixalash tartibida quyidagilar o'zaro o'zaro olinishi: e) Sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya etilishi. b) Qurilish materiallari turini belgilashda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tanqislangan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanish shartligi ko'zda tutalishi. v) Ob'yekt qurilishi uchun tanlangan yer maydoni xududidan orqib o'tuvchi kanal yoki eriqalar mavjud bo'lgan taqdirda, loyixadagi suv yo'nalishi xamda oqning muxofaza etish masofalarini saqlash va qirg'oqlarni obodonlashtirish va mustaxkamlash ishlari loyixalash jarayonida inobatga olinishi. g) O'zbekiston Respublikasi Bosh sanitariya vrachi B.I.Niyozmatov tomonidan "22" yanvar 2008 yilda tasdiqlangan O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLI PUNKTLARIDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH BO'YICHA SANITARIYA ME'YORLARI VA QOIDALARI O'ZR SMvaQ № 0246-08 talablari bajarilsin.</p>
12	Ёнгиндан сақлавиш талаблари	<p>Ob'yekt loyixalashda SNIP 2.01.02-85* Yong'indan saqlanish talablari SHNO 2.02.01-04 shaxarsozlik norma va qoidalar talablari bajarilsin.</p>
13	Экология талаблари	<p>Atmosfera havosining ifloslanishiga, kamayishiga va unga fizikaviy omillarning zararli ta'sir ko'rsatishiga olib keluvchi harakatlarni sodir etmasligi, ob'yektdan chiqqan chiqindilarning utilizatsiya qilinishini ta'minlashi hamda ular to'planib qolganida va qayta ishlanayotganida atmosfera havosini ifloslantirishning oldini olish choralarini ko'rish, Atmosfera havosini muxofaza qilish tadbirlarining bajarilishi tuproq, suv va atrof-muhitning boshqa ob'yektlari ifloslanishiga olib kelmasligi shart</p>
14	Лойихани келишиш	<p>Loyixa arxitektura -rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki davlat xizmatlari markazi orqali quyidagilar bilan kelishilsin: viloyat Qurilish bosh Boshqarmasi xuzuridagi xududiy arxitektura -shaxarsozlik kengashi bilan-tarixiy zonalar, shu jumladan madaniy yodgorliklarni quriqlash zonalarida quriladigan ob'yektlarning xamda davlat ob'yektlarining loyixalari; bevosita viloyat Qurilish bosh boshqarmasi bilan-boshqa ob'yektlarning loyixalari. Kelishish uchun elektron shaklda quyidagi xujjatlar taqdim etilsin: 1) loyixaning arxitekturaga oid qismi (tushuntirish xati)(tushuntirish xatida loyixa smeta xujjatida yong'in xavfsizligiga, sanitariya-epedimologiya va atrof-muxitni muxofaza qilish qoidalariga rioya etish bo'yicha va boshqa yo'nalishlarda bajarilgan ishlar aks ettiriladi)); 2) bino va inshotning fasadlari, qavatlar rejalari, qurish ob'yektining bosh rejasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Markazlashtirilgan investitsiyalar xisobidan moliyalashtiriladigan loyixa ishlari va investitsiya loyixalarini takomillashtirish uchun qo'shimcha choralar xakida" 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga 2-ildovada (Murakkablik toifasi bo'yicha ob'yektlar klassifikatsiyasi) keltirilgan III toifaga mansub ob'yektlarning loyixa-smeta xujjatlarini bevosita o'zlari sanitariya-epidimologiya va yong'inga qarshi nazorat xizmatlari xamda ekologiya va atrof muxitni muxofaza qilish organlari bilan kelishadilar; qurilish xajmi 300 kub metrdan ortiq bo'lmagan ob'yektlarni bevosita o'zlari tuman(shaxar) qurilishi bo'limlari bilan kelishadilar.</p>


15 <b>Қўшимча талаблар</b>	<p>Loyixa tashkiloti loyixani kelishi davomida viloyat Qurilish bosh Boshqarmasi yoki uning xuzuridagi xududiy arxitektura-shaxarsozlik kengashi tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Buyurtmachi o'z xoxishiga ko'ra qurilish ishlari tugagandan so'ng ob'yekt xududning ijro topotasvirini (yer osti va yer usti muxandistlik kamunikasiyalari aks ettirilgan xolda) bajarilishini ta'minlaydi va uning bir nusxasini viloyat Qurilish bosh Boshqarmasiga topshiradi. Loyixani ishlab chiqishda zilzila bardoshlik talablari inobatga olinsin. Qurilish jarayonida o'rnatilgan tartibda loyixa tashkiloti tomonidan ob'yektda mualliflik nazorati olib borish ta'minlansin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2019 yildagi F-5491 sonli farmoniga asosan, fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlariga davlat organi (mansabdor shaxs)ning noqonuniy ma'muriy hujjati qabul qilinishi oqibatida yetkazilgan zarar davlat tomonidan, birinchi navbatda, tegishli organlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplanishi, keyinchalik aybdor shaxsdan regress tartibida undirib olinadi. Loyiha-smeta hujjatlari uchun viloyati qurilish ekspertiza boshqarmasidan ijobiy ekspert xulosasi olinsin va Andijon viloyat qurilish soxasida xududiy nazorati inspeksiyasidan ruyhatidan o'tgan holda qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun xabarnoma jo'natish. Qurilish-montaj ishlarini bajarish jarayonida hudud vaqtincha o'ralib, qurilish ishlari "Qurilishni tashkil qilish loyixasi (POS)" asosida amalga oshirilsin. Tuman hokimligi qarori, komissiya bayonnomasi hamda tehnik shartlar va hulosalarda qo'yilgan talablar bajarilsin. ART xujjatlarini tayyorlash uchun asos sifatida yuborilgan xujjatlar (Qaror, ruxsatnoma, bayonnoma, farmoyish va boshqalar)ni o'z kuchida yoki bekor qilinganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi sababli, Andijon viloyat Qurilish Bosh boshqarmasi ushbu xujjatlarni amalda kuchda ekanligini tasdiqlamaydi hamda keltirilgan zarar qoplab berilmaydi. ART xujjatlari tayyorlash uchun asos bo'lgan xujjatlar bekor bo'lgan xollarda ART xujjatlari xam yuridik kuchini yo'qotadi.</p>
----------------------------	--

**Муҳандислик тармоқларига уланиш шартлари:**

16 <b>Ичимлик сув тармоғи</b>	<p>"O'zsuvta'minot" Andijon suvta'minoti MCHJ Andijon tumani filialining 2022 yil 6 iyun kungi 02/01-55-sonli texnik xulosasi talablari bajarilsin Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi talablari bajarilsin. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.</p>
17 <b>Оқава сув тармоғи (канализация)</b>	<p>"O'zsuvta'minot" Andijon suvta'minoti MCHJ Andijon tumani filialining 2022 yil 6 iyun kungi 02/01-55-sonli texnik xulosasi talablari bajarilsin Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi talablari bajarilsin. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.</p>
18 <b>Электр тармоғи</b>	<p>Andijon hududiy ETK AJ ning 2022 yil 7 iyun kungi 30-31-95/511-sonli texnik sharti talablari bajarilsin Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi talablari bajarilsin. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.</p>

19	Газ тармоғи	Hududgaz GTF Andijon tumangaz bo'limining 2022 yil 4 iyun kungi 03-01-12-37/357-sonli xulosasi talablari bajarilsin Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi talablari bajarilsin. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.
20	Телефон алоқа тармоғи	Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.
21	Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи	Mavjud emas
22	Дренаж тармоғи	Mavjud emas
23	Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкилотига қўйилаётган талаблар	Qurilish montaj ishlari amalga oshirish davrida xududdagi kommunikasiya tarmoqlari ximoya mintaqalari saqlansin. Tarmoqqa ulanish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 31 mart kungi 256-sonli qarori talablari asosida texnik shart olinsin va texnik shart talablari asosida tarmoqqa ulansin.
24	Архитектура-режалаштириш топшириғининг амал қилиш муддати	Mazkur Arxitektura rejalashtirish topshirig'i (ART) xujjati tasdiqlangan sanadan boshlab 2 (ikki) yil davomida amal qiladi.





**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИНИ ИШЛАБ ЧИҚДИ:**

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	A.Tursunov
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	D.Karimov

**АРТ лойиҳаолди ҳужжат бўлиб, ер участкаси ёки бино ва иншоотга мулк ҳуқуқини тасдиқламайди ҳамда қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун асос ҳисобланмайди.**

TURSUNOV ALISHER ABDIXALIKOVICH

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини [gero.gov.uz](http://gero.gov.uz) веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

6904

